



Jizzax viloyatida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-sentabr

2020- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **83,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **18,1** birlikni tashkil qildi.

2020- yilning yanvar-sentabrda **3308** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **112,5** foizni tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 1121 ta, sanoatda 628 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 887 ta, qurilishda 213 ta, yashash va ovqatlanishda 147 ta, tashish va saqlashda 55 ta tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo
33,9 %



Sanoat
19,0 %



Qurilish
6,4 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
26,8 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
4,4 %



Tashish va saqlash
1,7 %

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

| | O'lchov birligi | 2019- y. | 2020- y. | (+;-) |
|---------------------------------------------------------------|-----------------|----------|----------|-------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlikda | 13698 | 16953 | 3255 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlikda | 2941 | 3308 | 367 |
| Kichik tadbirkorlikning ulushlari: | | | | |
| YaHM | % | 82,8 | 83,2 | 0,4 |
| Sanoat | % | 61,7 | 61,2 | -0,5 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | % | 99,9 | 99,9 | |
| Investitsiya | % | 61,2 | 73,7 | 12,5 |
| Qurilish | % | 98,1 | 96,4 | -1,7 |
| Savdo | % | 92,2 | 92,2 | |
| Xizmatlar | % | 63,9 | 61,3 | -2,6 |
| Yuk tashish | % | 96,0 | 96,1 | 0,1 |
| Yuk aylanmasi | % | 98,4 | 98,2 | -0,2 |
| Yo'lovchi tashish | % | 95,8 | 95,4 | -0,4 |
| Yo'lovchi aylanmasi | % | 98,1 | 97,2 | -0,9 |
| Eksport | % | 68,6 | 66,0 | -2,6 |
| Import | % | 97,1 | 99,9 | 2,8 |



2020- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020- yilning yanvar- sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Jizzax shahrida - 723 ta, Sharof Rashidov tumanida - 367 ta, G'allaorol tumanida - 340 ta, Baxmal tumanida - 257 ta, Forish tumanida - 242 ta, Zomin tumanida - 229 ta, Zarbdor tumanida - 226 ta hamda Do'stlik tumanida - 205 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Yangiobod tumanida - 95 ta.

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

| | 2019- yil yanvar- sentabr | 2020- yil yanvar- sentabr | (+;-) |
|------------------------|------------------------------|------------------------------|-------------|
| Jizzax viloyati | 2941 | 3308 | 367 |
| Jizzax sh. | 893 | 723 | -170 |
| tumanlar: | | | |
| Arnasoy | 104 | 160 | 56 |
| Baxmal | 128 | 257 | 129 |
| G'allaorol | 229 | 340 | 111 |
| Sharof Rashidov | 511 | 367 | -144 |
| Do'stlik | 116 | 205 | 89 |
| Zomin | 261 | 229 | 32 |
| Zarbdor | 135 | 226 | 91 |
| Zafarobod | 68 | 147 | 79 |
| Mirzacho'l | 104 | 126 | 22 |
| Paxtakor | 122 | 191 | 69 |
| Forish | 204 | 242 | 38 |
| Yangiobod | 66 | 95 | 29 |



2020- yil yanvar-sentyabr holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Jizzax shahri - 21,9 %, Sharof Rashidov tumani - 11,1 %, G'allaorol tumani - 10,3 %, Baxmal tumani - 7,8 %, Forish tumani - 7,3 %, Zomin tumani - 6,9 %, Zarbdor tumani - 6,8 %, Do'stlik tumani - 6,2 %, Paxtakor tumani - 5,8 %, Arnasoy tumani - 4,8 %, Zafarobod tumani - 4,7 %, Mirzacho'l tumani - 3,8 %, Yangiobod tumani - 2,9 %, ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

| | 2019- yil yanvar- sentabr | 2020- yil yanvar- sentabr | (+;-) |
|-----------------------------------------------------------|------------------------------|------------------------------|--------|
| Jami | 2941 | 3308 | 367 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 464 | 887 | 423 |
| Sanoat | 658 | 628 | -30 |
| Qurilish | 385 | 213 | -172 |
| Savdo | 953 | 1121 | 168 |
| Tashish va saqlash | 85 | 55 | -30 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 142 | 147 | 5 |
| Axborot va aloqa | 38 | 36 | -2 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 30 | 28 | -2 |
| Boshqa faoliyat turlari | 186 | 193 | 7 |

Ma'lumot uchun: 2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

| | 2019- yil yanvar-sentabr | 2020- yil yanvar-sentabr | Farqi (+;-) |
|------------------------|-----------------------------|-----------------------------|----------------|
| Jizzax shahri | 893 | 723 | -170 |
| Sharof Rashidov tumani | 511 | 367 | -144 |
| G'allaorol tumani | 229 | 340 | 111 |
| Forish tumani | 204 | 242 | 38 |
| Baxmal tumani | 105 | 257 | 152 |
| Zomin tumani | 261 | 229 | -32 |
| Zarbdor tumani | 135 | 226 | 91 |
| Do'stlik tumani | 116 | 205 | 89 |

2020- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Jizzax shahrida – 723 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*



2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Jizzax shahrida 29,2 birlik, Arnasoy tumanida 22,9 birlik, Mirzacho'l tumanida 21,0 birlik, Zarbdor tumanida 20,4 birlik, Yangiobod tumanida 19,5 birlikni tashkil etgan. Baxmal tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 13,1 birlikka to'g'ri keldi.

* *Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*




2020- yilning yanvar-sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



- Bundan ko'rinib turibdiki, Jizzax tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Baxmal tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-sentabr holatiga ko'ra,

2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **83,2 %** ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-sentabrida **82,8 %**).





Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)





2020- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

| | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Investitsiya |
|------------------------|-------------|-------------|-------------|--------------|
| Jizzax viloyati | 61,2 | 96,4 | 61,3 | 73,7 |
| Jizzax sh. | 45,9 | 94,5 | 39,2 | 61,4 |
| <i>tumanlar</i> | | | | |
| Arnasoy | 50,4 | 100,0 | 70,5 | 25,7 |
| Baxmal | 100,0 | 100,0 | 83,5 | 94,6 |
| G'allaorol | 82,7 | 100,0 | 80,3 | 86,7 |
| Sharof Rashidov | 100,0 | 100,0 | 82,8 | 87,0 |
| Do'stlik | 45,2 | 100,0 | 71,3 | 81,7 |
| Zomin | 100,0 | 100,0 | 76,6 | 40,1 |
| Zarbdor | 50,6 | 100,0 | 66,8 | 77,6 |
| Zafarobod | 100,0 | 69,4 | 71,4 | 82,4 |
| Mirzacho'l | 94,8 | 78,4 | 60,1 | 95,7 |
| Paxtakor | 41,8 | 100,0 | 73,8 | 67,3 |
| Forish | 91,2 | 100,0 | 81,1 | 99,9 |
| Yangiobod | 99,8 | 100,0 | 89,4 | 78,5 |

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

**Baxmal (100,0 %),
Sh.Rashidov(100,0 %),
Zomin (100,0 %),
Yangiobod (99,8 %),
Mirzacho'l (94,8 %),
Forish (91,2 %),
G'allaorol (82,7 %),
Arnasoy (50,4 %),**
tumanlarida.

Qurilishda-


**Arnasoy (100,0 %),
Baxmal (100,0 %),
G'allaorol (100,0 %),
Sh. Rashidov(100,0%),
Do'stlik (100,0 %)
Zomin (100,0 %)
Zarbdor (100,0 %)
Paxtakor (100,0 %)
Forish (100,0 %)
Yangiobod (100,0 %)**
tumanlarida.

Xizmatlarda-

**Yangiobod (89,4 %),
Baxmal (83,5 %),
Sh. Rashidov (82,8 %),
Forish (81,1 %),
G'allaorol (80,3 %)
Zomin (76,6 %)
Paxtakor (73,8 %)
Zafarobod (71,4 %)
Do'stlik (71,3 %)
Arnasoy (70,5 %)**
tumanlarida.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020- yilning yanvar-sentabrida






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Sharof Rashidov tumanida – 100,0 %, Zomin tumanida – 100,0 %, Zafarobod tumanida – 100,0 %, Mirzacho'l tumanida – 100,0 %, Yangiobod tumanida – 100,0 %, Baxmal tumanida – 99,2 %, Do'stlik tumanida – 97,6 %, Arnasoy tumanida – 90,9 %, Forish tumanida – 87,7 %, G'allaorol tumanida – 83,5 %, ni, eng past ko'rsatkich Jizzax shahrida – 27,5 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiobod tumanida – 100,0 %, Mirzacho'l tumanida – 100,0 %, Do'stlik tumanida – 100,0 %, Baxmal tumanida – 100,0 %, eng past ko'rsatkich Paxtakor tumanida – 23,8 % ni tashkil etdi.



2020- yilning yanvar-sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (491,5 mlrd. so'm), Zafarobod (285,7 mlrd. so'm), Do'stlik (271,7 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (249,1 mlrd. so'm), Zomin (232,6 mlrd. so'm), Paxtakor (171,7 mlrd. so'm), Forish (128,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Mirzacho'l tumanida (47,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi






2020- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sharof Rashidov tumani (100,0 %), Baxmal tumani (100,0 %), Zomin tumani (100,0 %), Zafarobod tumani (100,0 %), Yangiobod tumani (99,8 %), Mirzacho'i tumani (94,8 %), Forish tumani (91,2 %), G'allaorol tumani (82,7 %) tashkil etdi. Paxtakor tumanida (41,8 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yilning yanvar-sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri – 1051,7 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 95,1%), Sharof Rashidov 791,5 mlrd. so'm (102,0%), Baxmal tumani 706,7 mlrd. so'm (105,1%) va Zomin tumani 671,8 mlrd. so'm (100,4%) hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri 661,5 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 107,5 %), Sharof Rashidov tumani 578,7 mlrd. so'm (101,0 %), Paxtakor tumani 125,6 mlrd. so'm (100,2 %), Zomin tumani 119,1 mlrd. so'm (104,9 %) hamda Mirzacho'l tumanida 27,8 mlrd. so'm (102,8 %)





2020- yilning yanvar-sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri – 579,6 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 99,0 %), Sharof Rashidov tumani 402,3 mlrd. so'm (99,7 %), Zomin tumani 232,1 mlrd. so'm (99,4 %), G'allaorol tumani 187,2 mlrd. so'm (99,6 %), Baxmal tumani 181,8 mlrd. so'm (100,8 %), Forish tumani 103,9 mlrd. so'm (101,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **538** ta respondentlar ishtirok etdi.


2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi* , % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi savdoda – 31,6 % (170 ta), xizmatlar sohasida – 24,2 % (130 ta), sanoatda – 17,1 % (92 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 13,0 % (70 ta) qurilishda – 14,1 % (76 ta)ni tashkil etdi.

* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020– yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qulay iqtisodiy vaziyat barcha tarmoqlarda tushdi.


Qulay iqtisodiy vaziyat savdoda 14,2 punktga, qurilishda 3,3 punktga kamaygan bo'lsa, sanoatda 0,6 punktga, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida esa 2,1 punktga xizmatlar sohasida 14,9 punktga, oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan faoliyat turlari bo'yicha savdoda 11,5 punktga, qurilish korxonalarida 3,9 punktga, sanoatda 1,1 punktga kamaygan bo'lsa, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida esa 4,7 punktga, xizmatlar sohasida 11,8 punktga, oshdi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida esa 31,4 punktga, xizmatlar sohasi 12,8 punktga, qurilishda 7,5 punktga kamayishi kuzatilgan bo'lsa, sanoat sohasida 20,0 punktga va savdoda 31,7 punktga iqtisodiy vaziyati ko'payishi kuzatilgan.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020- yillarning III choragidagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020– yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi xizmatlarda 13,7 punktga, sanoatda 0,3 punktga o'sgan bo'lsa savdo sohasi 9,8 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,4 punktga, qurilishda 1,7 punktga kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 31,8 punktga o'sgan bo'lsa qurilishda 13,3 punktga xizmatlarda 9,4 punktga, savdo sohasi 5,4 punktga, sanoatda 3,7 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 85,7 punktga, xizmatlar sohasida 14,3 punktga kamaydi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019-2020- yillar III choragidagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020– yil III chorak yakunlariga ko‘ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 75 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 14 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 18,7 % i), qurilish – 6 ta (8,0 % i), savdo – 26 ta (34,7 % i) va xizmatlar – 11 ta (14,7 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi – 18 ta (24,0 %).


2020- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020– yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 10,9 punktga, xizmatlar sohasida 10,9 punktga pasayishi kuzatilgan bo'lsa qurilishda 9,1 punktga, sanoat sohasida 7,3 punktga va savdoda 5,5 punktga o'sishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 10,4 punktga, savdoda 2,8 punktga, xizmatlar sohasida 1,2 punktga pasayishi kuzatilgan bo'lsa sanoat sohasida 10,3 punktga va qurilishda 4,0 punktga, o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 35,4 punktga, savdoda 15,2 punktga pasayishi kuzatilgan bo'lsa xizmatlar sohasida 25,3 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 16,2 punktga, qurilishda 9,1 punktga o'sishi kuzatildi.

2019-2020- yillar III choragidagi yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020– yilning III choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi savdoda 6,8 punktga, qurilishda 2,4 punktga, sanoat sohasida 0,3 punktga o'sish kuzatilgan bo'lsa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 9,5 punktga va xizmatlar sohasida 0,1 punktga qolgan barcha sohalarda kamayish kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qurilishda 14,7 punktga, xizmatlar sohasida 7,0 punktga, sanoat sohasida 6,3 punktga o'sish kuzatilgan bo'lsa savdoda 16,1 qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 12,0 punktga kamaydi.

Tanlanma kuzatuvimiz davomida yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar aniqlanmadi.



2019-2020- yillar III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Tayyorladi: Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi.

Tel: 72-221-51-02.